

Mayus bo‘lmaslik kerak!

Bu jahonsuz muhorabaning natijasida bizning aziz mamlakatimiz Turkiston ham bir falokat maydoni bo‘lub qoldi. Mamlakatimizning boshig‘a kelgan va kelaturg‘on musibat va falokatlari ul qadar ko‘payib bormoqdadirkim, inson olarni bir-bir ko‘z oldig‘a kelturub, chuqur bir o‘ylag‘onda, mamlakatimizning istiqbolini ko‘b bor u qo‘rquinch ko‘rub, oning husn istiqbolindan butun mayus bo‘lub qoladir.

Mayus bo‘lur. Chunki bir yoqdan mamlakatimizda hukm surmoqda bo‘lg‘on ochliq va tahchilliq o‘z haddidan oshib, ruhsiz o‘lum changalini bichar. Aholining yoqasig‘a qarab uzanmoqdadir. Hozirda bul baloyi umumiyning qo‘lidan ketdi va qishloqlar aholisi o‘z uy va eshiklarini va hatto o‘zlarining aziz bolalarini tashlab, shaharlarg‘a to‘planib, o‘qsizda ozuqasizliqdan torliq va qiyinliqg‘a tushkan shahar xalqining tashvishlarini ortduralar.

Boshqa yoqdan mamlakatimizdagi qatl va talanlar borg‘an sayin kuchaymoqda bo‘lub, bir odad shaklig‘a kirmakda; kechalari emas hatto kunduzlari ochiqdan-ochiq uylarni bosarlar. Do‘konlarni talaylar, ko‘cha va yo‘llarda yo‘l o‘tkuvchilani tutib, pul va kiyimlarini olar. Bu qatil va talashlarning oldini olmoqdan hozirda hukumat ojiz; aholi esa na o‘z jonidan emin va na o‘z molidan osuda emasdир.

Bularning ustig‘a bir nicha oylardan beri mamlakatimizda boshlang‘an siyosiy munoz‘a¹ va dohiliy urushlar, hammadan ortiq bizning tinchsizliqimizg‘a sabab bo‘lmoqdadir. 50 yildan beri tinch va osudaliq bilan yashab kelgan, urushni otinigina eshitganda, badani yaproqdek titragan Turkiston xalqi – emdi o‘z ko‘zining oldida insonlarning qirilish va o‘ldirilishini ko‘rsa, to‘p va miltiq gumbur qilarini nicha qadamda eshitsa, uy va imoratlarini yonib talonmoqlarig‘a shohid bo‘lib tursa, qanday bir vahshat va qo‘rquvga tushmakligi o‘z o‘zidan anglashilur.

Alalxusus, bu kunlarda yuz bergen Xo‘qand fofia oliyasi, oning to‘g‘rusida albatda maqolalar yozilsa kerak, ko‘nglida zarracha insoniyat hisi bo‘lg‘an kishini mutta‘sir² qilib, ko‘zidan ixtiyorsiz yoshini oqizmay qo‘ymas.

Mana bu hollarning har biri o‘z yerida vatanimiz Turkiston haqida ko‘zlag‘on “husni istiqbol”mizdan bizni mayus qilib, oxirimiz nima bo‘lsa ekan, deb fikr dunyosig‘a chumulturadir.

Ammo agar Ovrupo millatlarining muhoraba va inqiloblar orasida o‘tkazgan qora kunlarini, tortqon qiyinliq va tashvishlarini bir yo‘la ko‘zimiz oldig‘a ketursak, munday mayus va umidsizliqlarg‘a hech bir yo‘l yo‘qlig‘ini aniq bilib olamiz. Balki alarning kechirgan og‘ir kunlarining yonida bizning o‘tkarib turg‘on falokatli kunlarimiz bir namuna shaklidadir.

¹ Munoz‘a –nizolashuv.

² Mutta‘sir – ta’sirlantirib.

To parishon nashavad, kor basomon narasad³.

Ori, hech bir millat o‘zining milliy orzularig‘a yetushmadi va vatanini yotlarning asirligindan qutqarib ololmadi, magarkim minglarcha jonlar fido qilib, milyonlarcha davlatlarni barbod etmadi. Hech mamlakatda umumiyl tinchliq va osoyish qurulmadi, magarkim ul mamlakatda yillarcha urushlar va tartibsizliklar hukm surib, xalqni jonidan to‘yg‘uzmoq darajasig‘a kelmadi.

Binobarin bizga bunday ahvollardin ruhimizni tushurub, vatani azizimiz Turkistonning husni istiqbolindan mayus yulduzi yaqin kunlarda tugab, barcha og‘irliq va parishonlardan qutulmog‘imiz aniqdir.

S. A.
“Hurriyat” gazetasi. 1918 yil 1 mart.

³ Toki qiynalmas ekansan, ishing maqsadiga yetmaydi.